

Fakultet birinchi kurs talabalarini qabul qildi

Joriy yilning 4 sentyabr kuni “Gidromelioratsiya” fakulteti dekani Alisher Mirzatilloyevich Fatxulloyev birinchi kursga tavsiya etilgan talabalar bilan uchrashdi.

Uchrashuv davomida fakultet dekani talabalarni Respublikamiz mustaqilligining 28 yilligi hamda ularga talabalik baxti nasib etganligi bilan muborakbos etdi. Fakultet dekani talabalarga “Birinchi kurs maktabi” mazmun-mohiyati to’g’risida ma’lumot berdi.

Shu bilan birga Oliy ta’lim tizimida O’zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan islohotlar va tizimdagи yangiliklar bilan bir qatorda oliy dargohimiz tarixi, uning nufuzi haqida mufassal ma’ruza o’qidi.



GM dekan o’rinbosari S. Mansurov axboroti
Institut Matbuot xizmati rahbari Rahimboy Jumaniyozov